

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 6,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2741,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2843,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagи xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'limganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtida viloyatimiz hududida 10,8 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 6,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 63,4 % ni tashkil etdi.

**2018 yil 1 oktyabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2018 yil 1 oktyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (19,7) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining ulushi 1,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2741,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2741,0	112,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	160,3	115,6
Moliyaviy xizmatlar	360,4	138,7
Transport xizmatlari	548,3	109,6
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	426,8	103,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	114,4	102,7
Savdo xizmatlari	991,9	104,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	57,9	106,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	90,6	125,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	24,9	106,8
Ijara xizmatlari	48,0	108,2
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	50,8	102,7
Shaxsiy xizmatlar	71,5	101,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	89,1	253,5
Boshqa xizmatlar	132,9	105,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (156,7 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (39,4 mlrd. so'm), transport xizmatlari hajmi 26,2 mlrd. so'mga, boshqa xizmatlar (12,3 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlari (11,3 mlrd. so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqposlanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'limgagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 1,5 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (253,5 %), moliyaviy xizmatlar (138,7 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (125,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,6 %), sog'lijni transport xizmatlari (109,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (101,9 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (102,7 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida transportuning ulushi 36,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlar ni xizmatlari (27,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash xizmatlarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimas eng past foiz (0,9 %) ni tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Navoiy viloyati	2741,0	112,8
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Navoiy sh.	1 123,6	116,2
Zarafshon sh.	187,9	123,5
Konimex tumani	49,6	106,0
Qiziltepa tumani	274,6	108,6
Navbahor tumani	182,6	107,7
Karmana tumani	362,5	111,2
Nurota tumani	145,0	107,7
Tomdi tumani	23,7	103,9
Uchquduq tumani	70,0	105,5
Xatirchi tumani	321,5	109,9

Hududlar o'rtaida Navoiy shahri (1123,6 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Toshkent shahri bo'yicha 116,2 % ni tashkil etdi.

Navoiy shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Navoiy shahrining ulushi 41,0 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shahrida (123,5 %) va Karmana (111,2 %) tumanida kuzatildi. Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Xatirchi (109,9 %), Qiziltepa (108,6 %), Navbahor (107,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Tomdi tumanida (0,4 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2843,7 ming.so'mga teng bo'lди. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 550,1 ming.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida - 8277,7 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Zarafshon shahrida - 121,2 % kuzatildi.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Sh.Xajiyeva